

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA GENDERNI IFODALOVCHI LISONIY BIRLIKLAR

Tashpulatova Shirina Ziyoviddin qizi

f.f.f.d. (PhD)

Oriental universiteti Tillar-2 kafedrası

Annotatsiya: *Mazkur tezis ingliz va o‘zbek tillarida genderni ifodalovchi lisoniy birliklarning qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan. Tadqiqotda gender tushunchasining lingvistik mohiyati, uning grammatik, leksik va pragmatik vositalar orqali ifodalanish xususiyatlari yoritilgan. Ingliz tilida gender markerlari va gender neytral birliklarning qo‘llanish tendensiyalari, o‘zbek tilida esa gender ma‘nolarining qarindoshlik terminlari, murojaat shakllari hamda boshqa leksik vositalar orqali ifodalanishi tahlil qilingan. Shuningdek, gender stereotiplari va gender tengligi g‘oyalarining til tizimiga ta‘siri ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *gender, gender lingvistikasi, gender stereotiplari, gender tengligi, lisoniy birliklar, grammatik jins, leksik vositalar, pragmatika, qiyosiy tilshunoslik, ingliz tili, o‘zbek tili.*

Аннотация: *Данная работа посвящена сравнительному анализу языковых единиц, выражающих гендерные значения в английском и узбекском языках. В исследовании рассматриваются лингвистическая сущность понятия гендера, особенности его выражения на грамматическом, лексическом и прагматическом уровнях языка. Анализируются гендерные маркеры и тенденции использования гендерно-нейтральных единиц в английском языке, а также способы выражения гендерных значений в узбекском языке посредством терминов родства, форм обращения и других лексических средств. Особое внимание уделяется влиянию гендерных стереотипов и идей гендерного равенства на развитие языковой системы.*

Ключевые слова: *гендер, гендерная лингвистика, гендерные стереотипы, гендерное равенство, языковые единицы, грамматический род, лексические средства, прагматика, сравнительное языкознание, английский язык, узбекский язык.*

Abstract: *This thesis is devoted to a comparative analysis of linguistic units expressing gender meanings in the English and Uzbek languages. The study examines the linguistic nature of gender and the peculiarities of its expression through grammatical, lexical, and pragmatic means. It analyzes gender markers and the growing use of gender-neutral language in English, as well as the expression of gender meanings in Uzbek through kinship terms, forms of address, and other lexical resources. The research also highlights the impact of gender stereotypes and gender equality concepts on the development of language systems.*

Keywords: *gender, gender linguistics, gender stereotypes, gender equality, linguistic units, grammatical gender, lexical means, pragmatics, comparative linguistics, English language, Uzbek language.*

Til jamiyatning ijtimoiy tajribasi, muayyan xalqning milliy qadriyatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi murakkab semiotik tizim sifatida gender munosabatlari ifodasini ham o‘zida mujassamlashtiradi. Tilni inson omili bilan bog‘liq holda o‘rganish zamonaviy lingvistikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib, bunda til inson tafakkuri, madaniyati va ijtimoiy tajribasining mahsuli sifatida talqin qilinadi. Shu o‘rinda gender tushunchasi biologik jinsdan farq qilishini, biologik jins insonning fiziologik xususiyatlarini ifodalasa, gender jamiyatda shakllangan ijtimoiy rollar va stereotiplar yig‘indisini anglatadi. Gender stereotiplari, gender rollari insonning jamiyatdagi o‘rni, xulq-atvori, nutq uslubi va muloqot strategiyalariga ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sir lisoniy tizimda ham aks etishi muqarrardir. Ayni damda gender lingvistikasi ushbu tushunchaning lisoniy ifodalanishi, gender identifikatsiyasining verbal mexanizmlarini hamda turli tillardagi gender konseptlarining milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganadi. Ingliz tilida grammatik jins kategoriyasining cheklangan darajada bo‘lsa-da saqlanib qolganligi va genderni ifodalovchi leksik vositalarning yirik plastni hosil qilishi, zamonaviy ingliz tilida gender neytral birliklarning ko‘payishi, masalan, ayrim kasb nomlarida jins ko‘rsatkichlarining qisqarishi va inklyuziv til siyosatining kuchayishi kabi holatlar gender birliklarining semantik tarkibida yangi o‘zgarish tendensiyalari paydo bo‘layotganidan dalolat beradi. O‘zbek tilida grammatik jins kategoriyasi mavjud emasligiga qaramasdan, gender ma’nalari turli leksik, frazeologik va pragmatik vositalar orqali ifodalash imkoniyati bor. Xususan, qarindoshlik terminlari, oilaviy munosabatlarni ifodalovchi birliklar, murojaat shakllari gender maydonining muhim birliklari hisoblanadi. Ushbu vositalarning kognitiv, lingvomadaniy, pragmatik aspektlarini tadqiq etish zarur. Zamonaviy jamiyatda ayollarning ijtimoiy faolligi, kasbiy imkoniyatlarining kengayishi va gender tenglik g‘oyalarining ommalashishi ushbu mazmun doirasida yangi lisoniy birliklarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bilan birga, an’anaviy gender stereotiplari ham an’anaviy jamiyatlarda saqlanib qolmoqda. Bir ijtimoiy guruhda ijobiy hodisa deb baholanadigan gender terminlari boshqa bir jamiyat tomonidan salbiy deb qaralishi natijasida olamning lisoniy tasviri aynan gender mazmunida o‘ziga xoslik kasb etayotganini ta’kidlash joiz.

Gender birliklarini qiyosiy aspektda tahlil qilish til tizimidagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlash bilan birga har bir xalqning gender haqidagi tasavvurlarini ham yoritishga xizmat qiladi. Turli til oilalariga mansub ingliz va o‘zbek tarixiy taraqqiyoti, madaniy asoslari va muloqot an’analari jihatidan ham sezilarli darajada farqlangani bois ushbu tillarda gender ma’nolarining verbalizatsiyasi ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega deyishimiz mumkin. Gender konsepti til egalarining ijtimoiy tajribasi, qadriyatlari va madaniy stereotiplarini o‘zida aks ettiruvchi murakkab hodisadir. Lingvistik birliklarning semantik tarkibi til va gender munosabatlari tadqiqi doirasida asosiy obyekt hisoblanadi. Gender mazmuni lisoniy tizimning grammatik, leksik, semantik, pragmatik sathlarida ifodlanishi mumkin. Grammatik jins kategoriyasiga ega tillarda gender ma’nalari morfologik vositalar orqali namoyon bo‘lsa, bu kabi kategoriya mavjud bo‘lmagan tillarda mazmun asosan leksik va pragmatik birliklar vositasida ifodalanadi. Ingliz va o‘zbek tillari gender ma’nolarining ifodalanish usullari jihatidan bir-biridan sezilarli farqlanadi. Ingliz tilida genderga ishora

qiladigan ayrim grammatik va leksik markerlar mavjud bo‘lsa, o‘zbek tilida gender ma'nosi ko‘proq nominativ birliklar, qarindoshlik terminlari, sifatlovchi birliklar mazmunida yuzaga chiqadi. Gender va til munosabatlariga oid dastlabki ilmiy qarashlar Jespersen tadqiqotlarida uchraydi. U erkaklar va ayollar nutqi farqlarini tavsiflashga harakat qilgan bo‘lsada, Biroq genderning lingvistik ifodalanishini tizimli o‘rganish Robin Lakoffning “Language and Woman’s Place” ishida kuzatiladi. Lakoff ayollar nutqida uchraydigan lingvistik vositalarni tavsiflab, til birliklari gender tengsizligini aks ettiruvchi mexanizmlardan biri ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ayollar nutqida yumshoqlik, ehtiyotkorlik va hissiylikni ifodalovchi birliklar erkaklar nutqiga nisbatan ko‘proq uchraydi¹.

Lakoffga ko‘ra ayollar nutqiga xos bo‘lgan bir necha lingvistik elementlar mavjud:

Birinchi, ayollar nutqida fikrni *yumshatuvchi birliklar* faol qo‘llanadi: *sort of, kind of, I guess, I think, maybe, perhaps*. Masalan, *I think it is important* yoki *Maybe we should discuss it* kabi jumlar bilan so‘zlovchi fikrini ehtiyotkor shaklda bildirishga urinadi.

Ikkinchi, olim tag question shaklini birliklarini ayollar nutqiga xos belgilar qatorida ko‘rsatadi: *isn’t it?, don’t you?, right?, wouldn’t you?* Masalan, *It is a good idea, isn’t it?* gapida so‘zlovchi o‘z fikrini tasdiqlatishga intiladi. Bu shakl ham nutqda ishonchsizlik yoki muloyimlik ma’nosini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Uchinchi, Lakoffning ta’kidlashicha, ayollar nutqida hatto darak gapda ham so‘roq ohangi qo‘llanishi holati ko‘p uchraydi. Masalan, *I will come at five?* – gap grammatik jihatdan darak bo‘lsa ham, ohang orqali noaniqlik yoki tasdiq kutish ma’nosi yuzaga chiqadi.

Gender ma’nolarining lingvistik ifodalanishini asoslashda dominantlik nazariyasi ta’siri sezilarli darajada. Ushbu nazariyaga ko‘ra, lisoniy sistema erkaklar tomonidan shakllantirilganligi sababli aksariyat nutqiy me’yorlar erkaklar diskursiga tayanadi. Spender tilni ijtimoiy hokimiyat munosabatlarini aks ettiruvchi vosita sifatida talqin qilib, gender ma’nolarining shakllanishida ideologik omillar muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Gender ma’nolarining leksik ifodalanishi nominativ birliklarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ingliz tilida *businessman, chairman, spokesman* kabi birliklar an’anaviy gender markerlarini saqlab qolgan bo‘lsa, ayni damda ularning gender neytral shakllari paydo bo‘lmoqda. Masalan, *chairman o‘rnida chairperson, spokesman o‘rnida spokesperson* birliklarining qo‘llanilishi gender tengligini ta’minlashga qaratilgan til siyosatining natijasidir.²

¹Lakoff R. Language and Woman’s Place. – New York: Harper & Row, 1975. – 83 p.

² Coates J. Women, Men and Language. London: Routledge, 2016. 248 p; Sunderland J. Language and Gender. London: Routledge, 2006. 326 p; Baker P. Using Corpora in Discourse Analysis. London: Continuum, 2006. 198 p; Van Dijk T.A. Discourse and Power. New York: Palgrave Macmillan, 2008. 308 p; Лаккофф Р. Язык и место женщины в обществе. М.: YPCC, 2004. 320 с. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 2003. 276 p.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Baker P. Using Corpora in Discourse Analysis. London: Continuum, 2006. 198 p;
2. Coates J. Women, Men and Language. London: Routledge, 2016. 248 p;
3. Lakoff R. Language and Woman’s Place. – New York: Harper & Row, 1975. – 83 p.
4. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 2003. 276 p.
5. Sunderland J. Language and Gender. London: Routledge, 2006. 326 p;
6. Van Dijk T.A. Discourse and Power. New York: Palgrave Macmillan, 2008. 308 p;
7. Лакофф Р. Язык и место женщины в обществе. М.: УРСС, 2004. 320 с.